

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Камалова Хатира Сабировна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)  
**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тилипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич**  
доктор философии по социологическим наукам, доцент  
(Узбекистан)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Alikariyev Nuriddin</b> OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI MEHNAT SAMARADORLIGINING TAHLILI.....	4
<b>2. Parmanov Farxod, Xudayarov Ixomjon</b> SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI.....	12
<b>3. Турсунов Диёр, Сеитов Азамат</b> ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-СМИ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПРОТЕСТОВ В РОССИИ 2017-2018 ГОДА).....	19
<b>4. Sog'inov Nurmat</b> AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	29
<b>5. Zaitov Elyor</b> MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV.....	38
<b>6. Алексеева Виктория</b> СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕГОСЯ ГЕНДЕРНОГО ПОРЯДКА ДОСТИЖЕНИЯ РАВЕНСТВА.....	49
<b>7. Kayumov Kaxramon</b> DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTIKASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	57
<b>8. Abdullaev Akmal Gadaymurodovich</b> SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA.....	63
<b>9. Mahammadjanov G'olibjon</b> GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv).....	71
<b>10. Qozoqov Sobirjon</b> O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI.....	76
<b>11. Нуруллаева Джамиля</b> СПОРТ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ.....	83
<b>12. Mahammadjanov G'olibjon</b> JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL.....	90

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Abdullaev Akmal Gadaymurodovich,**  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat boshqaruvi akademiyasi doktoranti  
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
e-mail: abdullayev\_akmal@list.ru

### SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11052535>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada sotsiologik tadqiqotlar strategiyasini ishlab chiqishda sivilazatsion yondashuvning o‘rni va ahamiyati muhimligi yoritilib, G‘arb va Sharq sotsiologiyasida jamiyat sotsial stratifikatsiyaga doir tadqiqotlarni olib borishdagi farqlar aynan sivilizatsion yondashuvlar aks etishi yoritilgan. Bundan tashqari G‘arb olimlaridan Shmuel Eyzenshtadt, Arnold Toynbi, Pitirim Sorokin, Semyuyel Xantington va Frensis Fukuyamalarning sivilizatsiyaga oid konsepsiyalari tahlil qilingan. Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy va Ibn Xaldunning ko‘chmanchi va sivilizatsiyalashgan jamiyatlar sharoitida zamonaviy umumiy va maxsus sotsiologiyaning deyarli barcha asosiy muammolarini har tomonlama ko‘rib chiqqanligi va ularning ta‘limotlari hozir ham zamonaviy ko‘rinishga ega ekanligi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** sivilizatsiya, sivilizatsion yondashuv, sotsiologik tadqiqotlar, madaniyat, din, ko‘chmanchi xalqlar, G‘arb sotsiologiyasi, Sharq sivilizatsiyasi, identifikatsiya.

**Абдуллаев Акмал Гадаймуродович,**  
докторант Академии государственного управления  
при Президенте Республики Узбекистан  
доктор философии по социологическим наукам  
e-mail: abdullayev\_akmal@list.ru

### ЦИВИЛИЗАЦИОННЫЙ ПОДХОД КАК МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

#### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается важность роли и значения цивилизационного подхода в разработке стратегии социологических исследований, а также поясняется, что различия в проведении исследований по социальной стратификации общества в западной и восточной социологии отражают именно цивилизационные подходы. Кроме того, анализируются концепции цивилизации западных учёных Шмуэля Эйзенштадта, Арнольда Тойнби, Питирима Сорокина, Сэмюэля Хантингтона и Фрэнсиса Фукуямы. Среди восточных мыслителей Абу Райхан Беруни, Абу Наср Фараби, Ибн Халдун всесторонне рассмотрели

почти все основные проблемы современной общей и специальной социологии в условиях кочевых и цивилизованных обществ, и их учения играют важную роль и в настоящее время.

**Ключевые слова:** цивилизация, цивилизационный подход, социологические исследования, культура, религия, кочевые народы, западная социология, восточная цивилизация, идентичность.

**Abdullaev Akmal,**

Doctoral student of the Academy of Public Administration  
under the President of the Republic of Uzbekistan

Doctor of philosophy in sociological sciences

e-mail: abdullayev\_akmal@list.ru

## CIVILIZATIONAL APPROACH AS A METHODOLOGICAL BASIS FOR SOCIOLOGICAL RESEARCH

### ABSTRACT

The article discusses the importance of the role and significance of the civilizational approach in developing a strategy for sociological research, and also explains that the differences in conducting research on the social stratification of society in Western and Eastern sociology reflect precisely civilizational approaches. In addition, the concepts of civilization of Western scientists Shmuel Eisenstadt, Arnold Toynbee, Pitirim Sorokin, Samuel Huntington and Francis Fukuyama are analyzed. Among the eastern thinkers, Abu Raikhan Beruni, Abu Nasr Farabi, Ibn Khaldun comprehensively examined almost all the main problems of modern general and special sociology in the conditions of nomadic and civilized societies, and their teachings have a great importance even now.

**Key words:** civilization, civilizational approach, sociological studies, culture, religion, nomadic peoples, Western sociology, Eastern civilization, identity.

### KIRISH

Sivilizatsiya soʻzi lotincha civilis – fuqarolik, grajdanlik yoki davlatga taʼluqlilik maʼnolarini anglatadi. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida Sivilizatsiya – tamaddun, deb keltirilgan [1, – B.16]. sivilizatsiya atamasi XVIII asrlarda Fransuz maʼrifatparvarlari tomonidan “Madaniyat” tushunchasi bilan bogʻliq boʻlgan mustaqil atama sifatida ilmiy isteʼmolga kiritilgan.

Ilmiy adabiyotlar va lugʻatlarda sivilizatsiya atamasining taʼriflari bir xilda tushuncha bermaydi. Sivilizatsiya oʻzining kelib chiqishi va tuzilishiga koʻra jamoaviy va koʻp omillarni oʻzi ichiga olgan hodisadir. Sivilizatsiya tabiiy muhitning xususiyatlari (iqlim sharoiti, geografik va demografik omillar), inson ehtiyojlari, qobiliyatlari, bilimlari va koʻnikmalarining erishgan darajasi, ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologik tartibi va davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimida jamiyatning etnik va milliy tarkibi bilan shakllanadi. Sivilizatsiyalarning darajasi esa xalqlarning madaniy-tarixiy va diniy-axloqiy qadriyatlarining oʻziga xosligi, maʼnaviy taraqqiy topganligi, xizmat koʻrsatish va ishlab chiqarishning noyobligi va rivojlanish darajasi bilan baholanadi [2, – S.556].

1990-yillarda Oʻzbekistonda sotsiologiya fani alohida fan sifatida shakllanishi, shu jumladan jamiyatni isloh qilish va modernizatsiyalash muammolari nuqtayi nazaridan sivilizatsion yondashuv zamonaviy global dunyoni oʻrganishda boshqa yondashuvlar qatorida muqobil yondashuv sifatida yuzaga keldi.

### METODOLOGIYA

Sharq mutafakkirlarining taʼlimotlari davlat boshqaruvining sotsiologik asoslarni ochib beruvchi, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalarni ilmiy bilishning umumiy metodi boʻlgan dialektik metod ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi. Shuningdek, mavzuga tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, tizimli tahlil kabi xususiy-ilmiy metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot predmetni Sharq mamlakatlaridagi davlat boshqaruviga doir konseptual, kognitiv,

hamda gumanistik ta'limotlarning G'arbiy Yevropa sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta'sirining sotsiologik tahlili tashkil qiladi.

Tarixiy metod tadqiq etilayotgan voqeaning yashash tarzini o'rganish usullarini, ichki rivojlanishning borishi to'g'risidagi qonuniyatlar ifodasi bo'lgan, xronologik uzviylikda bir-birini almashtirayotgan faktlar genezisini, hodisalar tarixini qayta tiklash yo'li bilan o'rganish usullarini o'zida ifoda etadi. Sharq va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi tarixini o'rganishda sivilizatsion yondashuv metodologisini qo'llash va sotsiologiya metodologik bazasi doirasida madaniyat, din, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy guruhlarning o'ziga xosliklarini yagona madaniy va sivilizatsion majmuasida o'rganish imkonini beradi.

### ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev shunday ta'kidlagan edi. Jumladan, "Qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rtaga qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Xususan, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar bugun ham o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotgan emas. Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boyluk egalari bo'laturib, ularni har tomonlama o'qish-o'rganish, xalqimiz, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo'yicha, yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak" [3, – B.81].

G'arbiy Yevropaning mumtoz sotsiolog va siyosatshunos olimlari tarixshunoslik, falsafa va sotsiologiyada sivilizatsiya hodisasini nihoyatda keng tushunishga asoslanib, sivilizatsiya dunyosi tartibining to'rtta asosiy tarixiy shakllarini ya'ni turlarini ko'rsatib o'tganlar:

1. Ibtidoiy jamiyatlar sivilizatsiyasi (insoniyatning boshlanishi)
2. An'anaviy jamiyatlar sivilizatsiyalari (qishloq xo'jaligi va agrar);
3. Industrial jamiyatlar sivilizatsiyasi (sanoat texnogen);
4. Postindustrial jamiyatlar sivilizatsiyasi (axborot almashinuv va post-sanoat) [4, – S.461].

Isroillik sotsiolog olim Shmuel Eyzenshtadt sivilizatsiyani falsafiy va tarixiy fanlar nuqtayi nazaridan quyidagicha ta'riflagan. Uning fikricha sivilizatsiyaning umum falsafiy ma'nosi – atrof-muhit bilan almashinuvni o'z-o'zini tartibga solish orqali uning barqarorligi va o'zini rivojlantirish qobiliyatini ta'minlaydigan materiya harakatining ijtimoiy shaklidir. Sivilizatsiyaning tarixshunoslik ma'nosi – tarixiy jarayonning birligini va bu jarayon davomida insoniyatning moddiy-texnik va ma'naviy yutuqlarining umumiylikini bildiruvchi tushunchani beradi. Shu bilan birga ma'lum bir ijtimoiy darajaga erishish bilan bog'liq bo'lgan jahon tarixiy jarayonining bosqichini anglatadi [5, – S.15].

G'arbiy Yevropadagi klassik universalistik sotsiologlar Yevropaning inqilobiy tajribasini "dunyoning boshqa qismlaridagi mamlakatlar uchun namuna" sifatida tan olinishiga intiladilar. Natijada, G'arb sotsiologlari tarixiy vaziyatlarni tahlil qilishda ko'pincha noadekvat bo'lib, sivilizatsiyalarga metodologik ta'sir ko'rsatgan markazlarni to'liq o'rganmasdan qadimdan Yevropa sivilizatsiyalar markazi deb hisoblaydilar.

Buyuk Britaniyalik tarixchi olim Arnold Toynbi sivilizatsiyalarga ta'rif berib, sivilizatsiya o'zini o'zi aniqlash chegaralariga yetgan madaniyatdir madaniy tamoyilni ustuvor deb hisoblagan. Tarixda ma'lum bo'lgan barcha sivilizatsiyalar inson jamoalarining ayrim turlari bo'lib, din, arxitektura, tasviriy san'at, axloq, urf-odatlar o'xshashligi bilan birlashgan xalqlarning madaniyatidir. Toynbining fikriga ko'ra, insoniyatning yagona tarixi yo'q, demak, jahonning umumiy sivilizatsiyasi ham yo'q. Tarix bu o'zlari uchun yopiq va parallel ba'zan sinxron ravishda birga yashaydigan alohida sivilizatsiyalarning "Sikli". Shu bilan birga, u sivilizatsiyalarning muloqoti va o'zaro ta'siri natijasida

ba'zi umuminsoniy universallar shakllanishi mumkin. Shunday qilib, u jahon dini va axloqi bilan jahon sivilizatsiyasini shakllantirish imkoniyatini oldindan bilgan va tan olgan [6, – S.318].

O'zbekistonlik sotsiolog olim Azamat Seitov sivilizatsiyaning bugungi kundagi mazmuni va holatini moddiy qadriyatlar va texnik va texnologik yangiliklar tashkil qilmoqda deb hisoblaydi. U jamiyatning moddiy taraqqiyotini ta'minlaydigan zamonaviy fan va texnika jamiyatning ajralmas qismi bo'lganligi sababli sivilizatsiya madaniyatning samarali instrumental shakllarida qarama-qarshilikka duch kelmaydi. "G'arb" va "Sharq" mamlakatlaridagi sivilizatsion chiziq bo'ylab zamonaviy dunyo sivilizatsiyasini antagonistik ko'rib chiqish tendensiyasi mavjud bo'lib, ularning har biri o'z rivojlanish mantig'iga ega, aynan Sharq va G'arbning liberal va an'anaviy fikrning faoliyat yo'nalishlari industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish jarayonidir deb ta'kidlaydi [7, – S.48].

Sharq mutafakkirlarining ta'limotlari davlat boshqaruvining sotsiologik asoslarni ochib beruvchi, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalarni ilmiy bilishning umumiy metodi bo'lgan dialektik metod ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi. Shuningdek, mavzuga tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, tizimli tahlil kabi xususiy-ilmiy metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot predmetni Sharq mamlakatlaridagi davlat boshqaruviga doir konseptual, kognitiv, hamda gumanistik ta'limotlarning G'arbiy Yevropa sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta'sirining sotsiologik tahlili tashkil qiladi. Tarixiy metod tadqiq etilayotgan voqeaning yashash tarzini o'rganish usullarini, ichki rivojlanishning borishi to'g'risidagi qonuniyatlar ifodasi bo'lgan, xronologik uzviylikda bir-birini almashtirayotgan faktlar genezisini, hodisalar tarixini qayta tiklash yo'li bilan o'rganish usullarini o'zida ifoda etadi [8, – B.174].

Sivilizatsiyaning sotsiologik tadqiqotlarda o'rni va ahamiyatini aniq bilish uchun "Tarix sotsiologiyasi"ning o'rni beqiyosdir. Tarix sotsiologiyasi har qanday jamiyatda ko'plab tabiiy va ijtimoiy omillar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarga, shaxslarning rivojlanishga, ularning o'zgarishini o'rganadi. Shuningdek, ushbu tarmoq yo'nalishi jamiyatdagi sinfiy bo'linish, stratifikatsion jarayonlar, diniy va etnik (irqiy) mansublik, diniy g'oyalar, urf-odatlar an'analar va qadriyatlarni avloddan avlodga o'tishi jarayonlarini aniq tarixiy faktlar asosida tahlil qiladi.

Bundan tashqari, tarix sotsiologiyasi turli jamiyatlarda turli davrlarda jamiyatning ijtimoiy "vektori" yoki "magnit qutbi"ni aniqlash imkonini ham beradi. P.Sorokin o'zing "Inson, jamiyat va sivilizatsiya" asarida "Biroq, XIV asrgacha sotsiologiya deyarli tizimli fan emas edi. U bu shaklni XIV asrda buyuk arab mutafakkiri va davlat arbobi Ibn Xaldun (1332-1406) tomonidan "Tarixiy prolegomena" (Muqaddima) deb nomlangan keng qamrovli asarida Ibn Xaldun ko'chmanchi va sivilizatsiyalashgan jamiyatlar sharoitida zamonaviy umumiy va maxsus sotsiologiyaning deyarli barcha asosiy muammolarini har tomonlama ko'rib chiqqan. Ushbu asarning katta qismlari bugungi ham kunda juda zamonaviy ko'rinadi. Platon, Aristotel, Viko va Kontlar bilan birga Ibn Xaldun shubhasiz sotsiologiyaning (shuningdek, ilmiy tarixning) asoschilaridan biri hisoblanadi. Afsuski, Ibn Xaldunning asarlari XIX asr boshlarigacha G'arb olimlariga noma'lum bo'lib qolgan edi" [9, – S.137].

P.Sorokin sivilizatsiyalarni o'rganib shunday fikr bildirgan. Jumladan, shu vaqtgacha biz o'tmishdagi ko'plab sivilizatsiyalarni kashf qilish imkoniga ega bo'ldik va o'rgandik. Natijada, G'arb sotsiolog olimlari Yevropadan boshqa joylarda XIX asrgacha ibtidoiy madaniyat va ibtidoiy iqtisodiy tashkilotlardan boshqa hech narsa mavjud emas degan fikr mutlaqo noto'g'ri ekanligini ayon bo'ldi. Hatto ko'p ming yillar oldin sivilizatsiyalar ham ma'lum jihatlarida yorqin bo'lgan. Va shunga qaramay, ularning porlashi so'ndi, ular farovonlikni to'xtatdi va boylklari yo'qoldi. Ammo bu umuman, ular yo'q qilinganligi bizni ham xuddi shunday taqdir kutayotganidan dalolat beradi, ammo hozirgi kunda Yevropa va Amerika bu qoidadan qandaydir istisnomiz deb o'ylaydilar. Sotsiologiya oldingi sivilizatsiyalarni borligini va ularning qanchalar qudratli bo'lgani bilan birga butun sivilizatsiyalarni barbod bo'lish sabablarini ham o'rganadi va hozirgi zamonaviy sivilizatsiyalarga ba'zi prognozlarni beradi [10, – S.244].

Sivilizatsion yondashuvlar haqida gap borganda, jamiyatni o'rganuvchi fanlar nazariyasini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan olim va mutafakkir hamda davlat arbobi bo'lgan Abu Rayhon "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarini to'la ma'noda insoniyat

tarixining o'tgan besh ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag'ishlangan mumtoz etnosotsiologik asar, deb baholash mumkin. Mazkur kitobda ulug' mutafakkir asar yozilishi jarayonida olib borgan jamiyatga doir tadqiqotlari, qo'llagan usullari xususida so'z yuritib shunday yozgan: "Mazkur asarni yozish asnosida o'zimga ishonch hosil qildim-ki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo'li bilan haqiqiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin emas. Bunga faqat "Kitob ahllari" va turli din arboblari, shu (e'tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan belgilanadi. So'ngra ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi"[11, – S.11].

Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas, balki turli ijtimoiy darajalardagi murosa, ya'ni konsensus ekanligini uqtiradi. "Qarama-qarshiligi ravshan ayon bo'lgan narsaga qanday ishonib bo'ladi", deb mutafakkir ziddiyatlardan xoli bo'lgan jarayonlarda o'zgarish ehtiyoji kuchayishiga ishora qiladi. Mutafakkirning ushbu fikrini sivilizatsiyalarni sotsiologik tahlil qilish jarayonlarida ham kuzatish mumkin [12, – S.13].

Beruniy zamonaviy sotsiologiyadagi sivilizatsiyalar haqida ham fikr yuritib, jumladan, shunday yozgan: "Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Zamonlar o'tishi bilan bunday iboralar ko'payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan" [13, – S.50-51].

Beruniy o'z asarlarida xalqlar sivilizatsiyasidagi yutuqlar, sivilizatsiyalarning qudrati, shon-shuhrati, sivilizatsiyalardagi dinlar, e'tiqodlar, jamiyatning tabaqalashuvi, kundalik hayot va sivilizatsiyalarni boshqa sivilizatsiyalarga ta'siri hamda aloqadorligiga oid aniq faktlar va ilmiy tadqiqot natijalari jamiyatning rivojlanishini yoki tanazzulga uchrashishini X asrda nazariy jihatdan asoslab bergan.

Sivilizatsiyaning asosiy qismi va talabi bo'lgan modernizatsiya, har qanday o'tish bir turdagi tartibdan boshqa tartibga o'tishdir. Shuning uchun ham sotsiologiya o'z e'tiborini ma'lum bir jamiyatda tarixiy jihatdan o'ziga xos ijtimoiy tuzum qanday va qanday asosda qurilganligi haqidagi so'rovlarga javob beradigan ijtimoiy jarayonlar va mexanizmlar, institutlar va ijtimoiy rollar, ijtimoiy harakatlar va mafkuralarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Sivilizatsiyalarga doir nazariyalarda katta burilish nazariyasini Semyuel Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarida bayon qildi. Aynan S.Xantington sivilizatsiya nazariyalarining umumiy an'alariga asoslangan sotsiologik yondashuvni taklif qildi va G'arbiy Yevropaning sotsiolog olimlari undan global sotsiologiyani qurishda nazariy asos sifatida foydalandi. Zamonaviy global dunyo nazariyasini yagona, ammo izchil bo'lmagan shaxs sifatida qurish, shuningdek uni tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish S.Xantington faoliyatining asosiy vazifasi edi. S.Xantington shundan kelib chiqib, "global dunyoning tuzilishiga oid odatiy qarashlarning hech biri G'arb-Sharq, Shimol-Janub, Markaz-cheikka (imperiya, milliy-davlatlar majmui) nazariy jihatdan istiqbolli emas. Global dunyoning real tartibi va tuzilishini faqat sivilizatsion yondashuv, aniqrog'i, rang barang sivilizatsion yondashuv asosidagina nazariy jihatdan adekvat tushunish mumkin. Qolaversa, nafaqat zamonaviy global tartib tahlil birligi sifatida sivilizatsiyaga ega, balki butun insoniyat tarixi sivilizatsiyalar tarixidir" deydi.

Sivilizatsiyalar keng qamrovli bo'lib, ularning hech bir tarkibiy qismlarini yaxlitlik bilan bog'lamasdan tushunish mumkin emas, ular eng yuqori madaniy yaxlitlikdir. "Shuning uchun S.Xantington sivilizatsiya, odamlarning eng yuqori madaniy hamjamiyati va insonni boshqa biologik turlardan ajratib turadigan madaniy o'ziga xoslikning eng keng darajasidir. U til, tarix, din, urf-odatlar, ijtimoiy institutlar kabi umumiy obyektiv elementlar bilan ham, odamlarning subyektiv o'zini o'zi identifikatsiyalashi bilan ham belgilanadi" [14, – S.25].

G'arb olimlaridan Sh.Eyzenshtadt va F.Fukuyamalar butun dunyo xalqlari ertami kechmi bari bir bitta sivilizatsiyaga birlashadilar. Yevropa o'zining modern hayot tarzini ya'ni zamonaviy hayot tarzini butun dunyoga joriy qiladi degan xulosaga kelganlar. Ammo umuminsoniy universal sivilizatsiya global sivilizatsiya bo'la olmaydi. Sivilizatsiyalar tarixi shundan guvohlik beradiki, universallashtirish bu xalqlarni birlashtirmaydi. Zamonaviy hayot tarzi bu ko'p sivilizatsiyalashgan

global dunyo. Multitsivilizatsiya tizimi XX asrning 90-yillarda shakllangan bo'lsada XX asr birlashish asri bo'lmadi, balki sivilizatsiya xilma-xilligini namoyish etadi. Ko'p sivilizatsiya tizimining paydo bo'lishi jahon tarixining uchinchi bosqichining boshlanishini anglatadi.

Bunga misol XX asrning 90-yillarda jahon xaritasida o'zgarishlar, ko'plab xalqlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, yangi davlat va yangi jamiyat qurdilar hamda o'zlarining etnik yoki milliy madaniyat va urf odatlarini qayta tikladilar. Shu jumladan O'zbekiston ham.

Sivilizatsion yondashuv doirasidagi sotsiologiyaning predmet sohasi birinchi navbatda sivilizatsiya tushunchasi bilan belgilanadi. Bu mavzu sohasi til, tarix, din, urf-odatlar, ijtimoiy institutlar, subyektiv o'zini o'zi identifikatsiya qilish bilan belgilanadigan eng yuqori madaniy jamoa va madaniy o'ziga xoslikning eng yuqori darajasi sifatida sivilizatsiyani tuzadigan bir xil tarkibiy qismlar tomonidan tuzilgan bo'lishi lozim.

Sotsiologik tadqiqotlarda sivilizatsion yondashuvni qo'llash sotsiologik tadqiqotlarda quyidagi predmet yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi: Birinchidan, o'rganilayotgan tadqiqot obyektini madaniyati va madaniy an'analarni institutsional tahlil qilish, umumiy hayot tarzi, faoliyat tarzi, odamlarning mental xususiyati, ijtimoiy guruhlar yoki umuman jamiyatdagi mavjud e'tiqodning ta'sir doirasi va jamiyatdagi axloq normalarini tizimli o'rganish. Ikkinchidan, ijtimoiy institutlarni turli madaniy o'ziga xosliklari va sivilizatsiya amaliyotlarini tarixiy o'ziga xosligi bo'yicha sotsioantropologik nuqtai-nazaridan o'rganish. Uchinchidan, turli tarixiy, madaniy va sivilizatsiyaviy o'ziga xosliklarni etnosotsiologik nuqtayi nazardan o'rganish imkonini beradi.

Sotsiologiyaning ushbu tadqiqot yo'nalishlari sotsiologik yondashuv va sotsiologik konseptuallikni zamonaviy madaniyatshunoslik va ijtimoiy hayotni semantik o'qishga qaratilgan tarixiy bilimlar bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi va o'z navbatida sotsiologik tadqiqot metodlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

G'arb global madaniyatining yana bir muhim tarkibiy qismi ommaviy madaniyat iste'mol modellarini targ'ib qiladigan ommaviy axborot vositalari va Internetdir. Ommaviy madaniyat va ommaviy iste'mol dunyoning eng chekka burchaklariga, aholining barcha qatlamlariga kirib boradi va ommaviy iste'mol amaliyoti va xatti-harakatlarining global tizimini yaratadi. Natijada jamiyatda avlodlar aro to'qnashuv, deviant xulq-atvori, madaniy o'zgarishlar, marginallik, qadriyatlar o'zgarishi va e'tiqodlar almashinuvi kabi ko'plab ijtimoiy muammolar yuzaga keladi.

Shu bilan birga, bu manzara modernizatsiya jarayonlari zamonaviy dunyo oldiga qo'yayotgan qiyinchilikdan dalolat beradi. Vaziyatning paradoksi shundaki, madaniy sohada modernizatsiya muammosi plyuralizm chaqirig'idir. Kengayayotgan individuallashuv jarayoni din, qadriyatlar, turmush tarzi, madaniy iste'mol va turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar doirasida yaratilgan turmushning madaniy namunalari bo'yicha keng tanlov imkoniyatlarini ochib beradi. Aynan mana shu namunalardan individlar o'zlarining shaxsiy o'ziga xosligini shakllantirish uchun madaniy va tarixiy mazmunni topishlari mumkin [15, – S.25].

Shu o'rinda, turlicha sivilizatsiyaviy o'ziga xoslik qanchalik barqaror degan savol tug'iladi. Uning o'zagi yoki poydevori nima bo'lishi mumkin? Bu o'ziga xoslik ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy-funksional tizimiga singib ketganmi yoki u estetik va ovuntirish yoki ko'ngil xushlik xususiyatga egami?

Ushbu savollarga javob topish uchun sotsiologiya sivilizatsiya tartibi bilan tarixiy artefakt sifatida emas, balki sivilizatsiyalar tarixidan kelib chiqadigan zamonaviy global tartib sifatida shug'ullanishi kerak. Bu shuni anglatadiki, sotsiologiya madaniyat tahlilidan institutsional tahlilga qadam qo'yishi va hech bo'lmaganda zamonaviy ijtimoiy institutlar orqali sivilizatsiya ma'nolari va an'analarning zamonaviy dunyoga haqiqiy ma'nosini va tarjimasini taqdim qilishi lozim.

Zamonaviy jamiyatlar o'zlarining institutsional tartibiga ega, ular ba'zi tarkibiy qismlarida an'anaviy va zamonaviydan farq qilishi mumkin, ammo uning madaniy va ramziy asoslanishi sivilizatsiya tartibiga asoslangan. G'arbda zamonaviy institutlari ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangi shakllanayotgan G'arbgga xos bo'lgan qadriyatlarni oqlaydilar balki bunday qadriyatlarni universalistik xususiyatga ega bo'lishi xohlaydilar, hatto G'arb madaniyati va sivilizatsiyasining tarixini ham o'zgartirish tarafdori ham bo'ladilar. Muammo, biz ko'rib turganimizdek, jamiyatning ijtimoiy tartibini belgilaydigan va sivilizatsiyaning madaniy va ramziy tartibida dunyoning mifologik

yoki diniy manzarasida, tarixiy rivoyatlarda aniq ildiz otgan axloqiy va diniy an'analardagi asosiy, tizimli va institutsional bloklarni o'zgartirmoqda va bunday o'zgarishlarni global dunyoga tarqatmoqda.

Bunday tizimli-institutsional bloklar juda ko'p bo'lishi mumkin, ammo biz uchta haqida ishonch bilan gapirishimiz mumkin. Birinchidan, hokimiyat va ijtimoiylashuvning asosiy institutlari sifatida oila va qarindoshlik tizimlari haqida. Ikkinchidan, hokimiyatni tan olinishi va qonuniylashtirish. Uchinchidan, iyerarxiya va tabaqalanish tizimlari haqida, unda ramziy xususiyatlar resurslarni taqsimlash va tan olish va qonuniylashtirish mexanizmlari bilan birlashtiriladi. Ushbu tizimli-institutsional shakllanishlar, bizning fikrimizcha, butun bir ijtimoiy tuzumning asosiy poydevori bo'lib, ularni tushunish faqat uning madaniy va sivilizatsiyaviy o'rganish orqali amalga oshirish mumkin.

### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya fani doirasida ushbu turdagi tadqiqotlarni o'tkazish jamiyatning madaniy-sivilizatsiyaviy tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini va madaniyat sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlashga, shuningdek, asosiy madaniy-sivilizatsiyaviy o'ziga xosliklarni va ularning rivojlanishidagi rolini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'llash mumkin. Bu nafaqat sotsiologik tadqiqotlarga, balki tarixiy bilimlarga, madaniyatshunoslikka, dinshunoslikka va etnografiyaga eng chuqur murojaat qilishni ham talab qiladi. Bularning barchasini sotsiologiyada sivilizatsion yondashuv doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy birlikni ta'minlash milliy va madaniy identiklikni belgilashda ham qo'llash mumkin.

Darhaqiqat, sivilizatsiya nazariyasiga tayanish ijtimoiy va gumanitar fan sifatida sotsiologiyaning metodologik bazasida yanada boyitish imkon berdi. Sivilizatsion yondashuv doirasidagi tadqiqotlar madaniyat, din, ijtimoiy institutlar va madaniyatning yagona madaniy-sivilizatsiyalarni identifikatsiyalash majmuasiga oid miqdoriy va sifatiy sotsiologik tadqiqotlar olib borishda ham o'z samaradorligini ko'rsatadi.

### Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Ц ҳарфи. Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. – Тошкент 2000. – Б.16. (National encyclopedia of Uzbekistan letter Ts. National Encyclopedia of Uzbekistan» State Scientific Publishing House. Tashkent 2000. – B.16.)
2. Ерасов Б. С. Сравнительное изучение цивилизаций: Хрестоматия. Учеб. пособие для студентов вузов. – М.: Аспект Пресс, 1998. – С.556. (Erasov B.S. Comparative study of civilizations: Reader. Textbook manual for university students. M.: Aspect Press, 1998. – P.556.)
3. Мирзиёев Ш.М. 2-том. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.508. (Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 2nd volume. The approval of our people is the highest evaluation given to our activities. M 54. - Tashkent: "Uzbekistan" NMIU, 2018. - B.508.)
4. Яковец Ю.В. Истории цивилизации. – М., 1995. – С.461. (Yakovets Yu. V. History of civilization. M., 1995. –P.461.)
5. Эйзенштадт Шмуэль. Революция и преобразование обществ: Сравнительное изучение цивилизаций. – М.: Аспект-Пресс, 1999. – С.15. (Eisenstadt Shmuel. Revolution and transformation of societies: A comparative study of civilizations. – М.: Aspect-Press, 1999. – P.15.)
6. Тойнби А. Дж. Цивилизация перед судом истории. – М., 1996. – С.318. (Toynbee A. J. Civilization before the court of history. – М., 1996. – P.318.)
7. Сейитов А. Интерпретация термина «цивилизация» в социологии. Проблемы современной науки и образования. № 27 (69), 2016. – С.48. (Seyitov A. Interpretation of the

- term “civilization” in sociology. Problems of modern science and education. No. 27 (69), 2016. – P.48.)
8. Серых В.М. Метод правовой науки. Основные элементы, структура. – М., Госюриздат, 1980, – Б.174. (Serykh V.M. Method of legal science. Basic elements, structure. – M., Gosyurizdat, 1980, – B.174.)
  9. Сорокин П.А. Социальная стратификация и мобильность // Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – Москва: Политиздат, 1992. – С.137. (Sorokin P.A. Social stratification and mobility // Sorokin P.A. Human. Civilization. Society. – Moscow: Politizdat, 1992. – P.137.)
  10. Сорокин П.А. Социальная стратификация и мобильность // Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. – С.244. (Sorokin P.A. Social stratification and mobility // Sorokin P.A. Human. Civilization. Society. – Moscow: Politizdat, 1992. – P.244.)
  11. Беруний. Избранные произведения, 1-том. – Ташкент: Фан, 1957. – С.11. (Beruniy. Selected Works, 1st volume. – Tashkent: Fan, 1957. – P.11.)
  12. Беруний. Избранные произведения, 1-том. – Ташкент: Фан, 1957. – С.13. (Beruniy. Selected Works, 1st volume. – Tashkent: Fan, 1957. – P.13.)
  13. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – М., 2017. – С.50-51. (Huntington S. Clash of Civilizations. – M., 2017. – P.50-51.)
  14. Кимелев Ю.А., Полякова Н.Л. Модерн и процесс индивидуализации: исторические судьбы индивида модерна. – М., 2017. – С.25. (Kimelev Yu.A., Polyakova N.L. Modernity and the process of individualization: the historical destinies of the modern individual. – M., 2017. – P.25.)
  15. Кимелев Ю.А., Полякова Н.Л. Модерн и процесс индивидуализации: исторические судьбы индивида модерна. – М., 2017. – С.25. (Kimelev Yu.A., Polyakova N.L. Modernity and the process of individualization: the historical destinies of the modern individual. – M., 2017. – P.25.)

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 7, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000